

ABDULLA AVLONIY MA'RIFATPARVARLIK ADABIYOTI DARG'ASI**Samandarova Nozima Ilhomjon qizi**

Nizomiy nomidago Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniy ma'rifatparvarlik adabiyoti darg'asi ekanligi haqida so'z boradi. Muallif adabiy ma'lumotlar hamda yozma manbalarga tayanib, mavjud ilmiy-tarixiy adabiyotlar asosida muammoga aniqliklar kiritgan mavzu bo'yicha mavjud o'ziga xos jihatlarini o'rgangan.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, ma'rifatparvar, dramaturg, uyg'onish davri, adabiyot.

Abdulla Avloniy 1878 yili 12 iyulda Toshkentdagi Mergancha maxallasida dunyoga keldi. U avval O'qchidagi Akramxon domlada savodini chiqardi. 1890 yili shu mahalladagi madrasaga o'tdi. So'ng Shayhontohurdagi Abdumalikboy madrasasiga o'tdi. "1991 yildan boshlab faqat qish kunlari o'qib, boshqa kunlari mardikor ishladi" deb yozadi Avloniy. 1904 yilda Avloniy Mirobodda «usuli jadid» maktabini ochadi. 1907 yilda "SHuxrat" gazetasini chiqara boshlaydi. 10 soni chiqib yopiladi. Redaksiya asbob ashyolari musodara qilinadi. U A. Bektemirov nomiga ruxsat olib, "Osiyo" nomli gazeta chiqara boshlaydi. 1914-15 yillarda advokat Ubaydulla Xo'jaev bilan "Sadoyi Turkiston" gazetasida xamkorlik qiladi. Biroq uning xam 66 soni chiqib, to'xtaydi. 1909 yilda «jamiyati xayriya» ochdi va mahalliy xalq bolalarining o'qib bilim olishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatdi. 1913 yilda "Turon" jamiyati maydonga keldi. Jamiyatning qoshida teatr tuzildi. 1914 yili Toshkentning muxtasham Kolizeyida Behbudiyning "Padarkush"ini sahnaga qo'ydi. 1914 yili 26 dekabrda teatr «Turkiston» nomi bilan safarga chiqadi. Avloniy truppa uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Ikki sevgi", "Po'rtugaliya inqilobi" sahna asarlari yaratdi. 1915 yilda Mirobod mahallasidagi Avloniyning boshlang'ich maktabini yopadilar. Avloniy 1917 yilgi fevral voqealaridan keyin "Turon" gazetasini chiqardi.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun tuzilgan alifbelar anchagina. Ular orasida Avloniyning «Birinch muallim»i ham o'z o'rniga ega. «Birinch muallim» 1917 yilga qadar 4 marta nashr qilingan. «Ikkinchi muallim» yuqoridagi kitobning bevosita davomi. 1913 yilda "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bosiladi. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm»-axloq haqida fikr yuritiladi. "Turkiy guliston..." da aql va ilmning, ma'naviy-axloqiy olamning favqulodda ehtiros bilan ulug'lanishi adib ma'rifatchiligining bevosita mazmunidan kelib chiqadi. Avloniyning qarashlarida Navoiyning «Inson-xilqat toji» nuqtai nazarining ta'siri yaqqol sezilib turadi. "Turkiy guliston..." da yomon xulqlar degan bo'lim bor. Unda kishilarga xos 18 qusur haqida gap ketadi. Muallif nazdida ularning aksariyatiga sabab johillikdir. Shu boisdan adib tanqidini jaholatga qaratadi. Buzuqlik-safohat, hamoqat, yalqovlik-atolat, xasislik-xasosat, tanparvarlik-rahovat, takabburlik-anoniyat, hasad, yolg'onchilik-kizb, nifoq, ta'ma kabilar ko'pincha shundan kelib chiqadi. Muallif bularning bari haqida alohida to'rtaladi. Ularning fiziologik-psixologik asoslarini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Avloniy 1894 yildan she'r yozishni boshlagan bo'lsada, u she'rlar bizgacha yetib kelmagan. Uning 1917 yilgacha bo'lgan poetik merosi "Adabiyot" nomli 6 qismdan iborat she'riy to'plamlarida jamlangan. Avloniy erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan unga olib boradigan birdan- bir yo'l deb ilm- ma'rifatni bildi. Avloniy she'rlarini o'qir ekansiz, ko'z oldingizga 20 asr boshidagi Turkiston manzaralari gavdalanadi. Shoir unga yuksakdan, dunyo halqlari hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, Yevropadagi taraqqiyot nazardan razim soladigan. Mana, taraqqiyot asridagi Turkistonning rangsiz jonsiz hayotidagi lavhalar:

Samovarga chiqishub, yoshu – qari chuldirashur

Ertadan kechg'acha choyini ichadur shuldur-shuldur.

Ulturib maqtashadur otini, eshaklarini,

Biri der – yo'rg'a, yana biri der: - seniki – duldur – duldur

Uyda och ulduradur, xotini, er – to'kma yeyar,

Kelturib bachcha bazmlarga ketar puldur – puldur.

O'ynabon qarta – qimor, pullarini boy beribon,

Tom teshib, puhcha o'g'irlab. Odam o'ldur – odam o'ldur.

SHe'riyatda esa yangi g'oya va timsollar uchun yangi shakl va ifodalar izladi. Eskilariga yangi mazmun singdirdi. Ularning muhimlari qo'yidagilar edi:

Vaznning yangilanishi: Avloniyning barmoqdagi ilk she'rlari halq qo'shiqlariga moslab yozildi.

Poetik janrlarning yangilanishi. Adabiyot shu yillarda halq xayoti bilan yanada yaqinlashdi, yanada halqchil, ommabop bo'ldi. Adiblar yangi janrlar va shakllarda o'z kuchlarini sinashga shaylandilar ko'hna an'anaviy shakl va yangi xususiyatlar orttirdi. Avloniyning "Oila munozarasi", "SHoir eli tuti" kabi bir qator she'rlari munozara harakterida yozilgan.

Poetik obrazlarni yangilanishi. Klassik adabiyotimizda ming yillardan biri ishlanib kelgan gul, bulbul yor, ag'yor, may, char, (dunyo) kabi obrazlar bu davr adabiyotida jumladan, Avloniy ijodida boshqacha ohang, boshqacha mazmun kasb etdi. Masalan u gulni shunday "ta'rif" laydi:

Xor alindan bag'ri qon o'lmish, buyanmish qonga gul,

G'uncha bag'rin chok etib, afg'on qilur afsona gul

Avloniyning shaxsiy arxivida "Portugaliya inqilobi" nomli bir drammatik asari bor. U adibninng boshqa asarlaridan ajralib turadi. Besh parda o'n kurinishli bu asarni muallif fojia (tragidiya) deb – atasada, mazmuniga ko'ra u qahramonlik drammasiga yaqin. Shoirning inqilobiy tuntarishlar davridagi faoliyati qanchalar tahlikali kechgan bo'lsa ijodi ham shu qadar murakkab, ziddiyatli bo'ldi. U, bir tomondan inqilobga katta umid bilan qaradi, o'z istedodini uning xaizmatiga qo'ydi. Ikkinchi tomondan uning o'zgarishlariga qanoatlanmadi. To'g'rirog'i yurtning iqtisodiy talon qilinayotganini maxalliy halqqa hech qanday huquq bermaganligini asriy tartib – udumlar, milliy ananalar oyoq osti bo'layotganini, din – diyonat yemirilayotganini ko'rib iztirobga tushdi. Mana bu satrlarga razm solaylik:

Har soniyada o'zga alam, o'zga jafodir kuraman

Har soat ichinda necha bin dard alamdur kuraman.

Har kecha tilarsan o'lajak, ertasi ravshan,

Ul kunduzi kechunda badar toza fanodur kuraman.

Avloniy ko'plab sharqiya mashqlar ham yozdi. Sharqiyachiliq inqilob yillarida juda keng tus olgan. Sabablari ma'lum. Ommaga ruh berish lozim edi. Avloniy o'sha yillari "Hurriyat marshi", "Qizil tayloqchilar marshi", "Tolibi ilm marshi" kabi birnecha marshlar yaratgan. Avloniy 17 yildan keyin yana 17 yil yashagan bo'lsa – da, ijodda ham faoliyatda ham inqilobdan ilgarigidek serharakat bo'lgan emas. Orta ham adabiy – badiiy kitob yohud to'plami bosilmagani buni kursatib turibdi. To'g'ri, "Nabil", "Indamas", "SHuhrat", "CHol", "CHegaboy", "Abdulhaq" kabi imzolar bilan gazeta jurnallarda, ayniqsa, "Mushtum"da ko'plab hajviy she'rlar, kulgi hikoyalar bostirib turdi. Lekin katta jiddiy ishlar qilmadi. Ammo she'rlarida qochiriqlar, taggaplar ko'payib bordi. 1933 yil VII sinf uchun xrestomatiya tuzib, nashr ettirdi. Unga 20 -30 yillardagi o'nlab o'zbek adiblari hamda rus, Yevropa adabiyotinnig qator vakillari haqida biografik ma'lumotlar kiritilgan, ularning mashhur asarlaridan namunalar berilgan edi. 1934 yili 25 avgusta vafot etdi.

Adabiyotlar:

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish. T.; "Ma'naviyat" 2002 y.
2. Qosimov B va b. Milliy uygonish davri adabiyoti. T.; "Ma'naviyat" 2000 y.
3. Avloniy . Toshkent tongi. T.; 1979 y.
4. Raxmonov M. O'zbek teatri tarixi. T.; Fan. 1968 y.
5. Rizaev Sh. Jadid dramasi. T. Sharq. 1997 y.
6. Boboxonov A. Maxsumov M. Abdulla Avloniy. Pedagogik faoliyati.T.; 1966.
7. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T., 1999.
8. A.Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. T., Ma'naviyat, 1998.